

Chakka arteriiti (Xorton sindromi)

Chakka arteriyasi – tashqi uyqu arteriyasi (*a.carotis externa*) tarmoqlaridan biridir. Chakka arteriiti autoimmun kasallik bo‘lib, asosan, 50 yoshdan oshganlarda uchraydi. Chakka arteriiti klinikasi uch shoxli nerv nevrалgiyasiga o‘xshab ketsada, uning farq qiluvchi klinik va paraklinik belgilari bir qancha. Chakka arteriitining asosiy belgisi ham chakka-peshona sohasida uchraydigan kuchli og‘riqlar hisoblanadi. Lekin bu og‘riqlar kam hollarda bir tomonda, ko‘p hollarda ikkala tomonda uchraydi. Surunkali kechuvchi og‘riqlar ba’zida kuchayib, chidab bo‘lmaydigan darajaga yetadi. Ular ko‘pincha ovqat chaynaganda kuchayadi.

Obyektiv tekshiruvlar chakka arteriyasi qalinlashgani va qotishganini ko‘rsatadi. Arteriya juda qotishgan holatlarda uning urishi ham sezilmaydi. Kasallik nafaqat lokal og‘riqlar bilan namoyon bo‘ladi, ba’zida og‘riqlar boshning hamma joyida aniqlanadi. Shuningdek, tana harorati subfebril darajagacha oshadi, ko‘p terlash va umumiy holsizlik kuzatiladi. Bemor tez charchaydigan bo‘lib qoladi.

Chakka arteriiti umumiy autoimmun kasallikning klinik bir ko‘rinishi bo‘lganligi sababli boshqa tomirlarning zararlanishi ham aniqlanadi. Aksariyat hollarda ichki uyqu arteriyasi, aorta va koronar arteriyalar zararlanishi kuzatiladi. Retinal arteriyaning zararlanishi ko‘rishning susayishi bilan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ko‘ruv nervi va ko‘zni harakatlantiruvchi nervlar zararlanishini ham kuzatish mumkin. Qonda yallig‘lanish reaksiyalari, ya’ni leykositoz, EChT va C-reaktiv oqsil miqdorining oshishi kuzatiladi. Chakka arteriiti tashxisini qo‘yishda dupleksli skanirlash usuli va chakka arteriyasi biopsiyasi o‘rni juda katta.

Manba: © Z. Ibodullayev. **Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.**

© Z. Ibodullayev. **Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.**

© **Ibodullayev ensiklopediyasi**

© www.asab.uz